

O'ZBEK IMO-ISHORA TILI LEKSIKASI VA GRAMMATIKASIGA EGA LINGVISTIK TIZIM SIFATIDA

Qahramonova Iroda Suyun qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti

surdotarjimon yo'nalishi talabasi

Tel: +998881179694

Annotatsiya / Abstrakt. *Mazkur maqolada o'zbek imo-ishora tilining boshqa tabiiy tillar kabi o'ziga xos leksik va grammatik tuzilmalarga ega ekani, hamda uning so'zlashuv nutqidan tubdan farq qilishi tahlil qilinadi. Barcha tillarda leksika va grammatika mavjud bo'lsa-da, o'zbek imo-ishora tilida har bir ishoraning konfiguratsiyasi, joylashuv nuqtasi va harakat yo'nalishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillardan birortasi o'zgargan taqdirda, ishoraning ma'nosi ham o'zgarishi mumkin. Shuningdek, maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning muloqot jarayonida grammatik tuzilmalarning tutgan o'rni va ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *konfiguratsiya, harakatning yo'nalishi, joylashuv o'rni (lokalizatsiya), leksika, grammatika, sodda so'zlar, qo'shma so'zlar, murakkab so'zlar.*

Annotation / Abstract *This article analyzes how Uzbek Sign Language, like other natural languages, possesses its own lexical and grammatical structures and differs fundamentally from spoken language. While all languages have vocabulary and grammar, in Uzbek Sign Language each sign has a specific configuration, location, and direction of movement — each contributing to its meaning. A change in any of these elements may lead to a complete change in meaning. Furthermore, the article explores the role and importance of grammar in the communication processes of individuals with hearing impairments.*

Keywords : *configuration, direction of movement, location (localization), lexicon, grammar, simple words, compound words, complex words.*

Аннотация / Реферат. *В данной статье рассматривается, что узбекский жестовый язык, как и другие естественные языки, обладает собственной лексикой и грамматической структурой, а также существенно отличается от устной речи. Несмотря на то, что лексика и грамматика присущи всем языкам, в узбекском жестовом языке каждая жестовая единица имеет определённую конфигурацию, расположение и направление движения, которые играют важную семантическую роль. Изменение любого из этих элементов может привести к изменению значения*

жеста. Кроме того, в статье освещается роль и значение грамматики в процессе общения людей с нарушением слуха.

Ключевые слова : *конфигурация, направление движения, место расположения (локализация), лексика, грамматика, простые слова, составные слова, сложные слова.*

Imo - ishora tillari odatdagi nutq tillari singari, doimiy rivojlanib boradi va eshitishida nuqsoni bo'lgan insonlarning kundalik hayot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yangi so'zlar, iboralar va so'z birikmalarini lug'atiga kiritadi va boyitib boradi. Imo-ishora tillari dunyo bo'yicha millionlab eshitishida nuqsoni bo'lgan insonlar uchun asosiy kommunikativ vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbek imo-ishora tili ham ana shunday tillar qatoriga kiradi va u o'zining boy leksikasi, barqaror grammatik tuzilmasi bilan alohida e'tiborga loyiq. O'zbek imo - ishora tili tuzilishi jihatdan Sodda va Murakkab imo-ishora so'zlaridan iborat bo'ladi.

Sodda imo - ishoralar: Bitta ishora orqali asosiy bitta ma'noni bildiradi va asos va qo'shimchaga ajralmaydi.



Ota

Murakkab imo - ishoralar: Ikki va undan ortiq ishoralar orqali bitta ma'noni ifodalashi mumkin.



Aka

O'zbek imo-ishora tilining leksikasi asosan qo'l harakatlari, mimikalar va tana holatlari orqali ifodalanadi. Har bir so'zga mos keluvchi ishora mavjud bo'lib, u aniq gap yoki matndan kelib chiqqan holda qo'llaniladi. Ko'pchilik ishoralar vizual obrazga ega bo'lib, real hayotdagi predmetlar yoki harakatlarni ifodalaydi (masalan, "ovqat" ishorasi og'izga olib boriladigan harakat orqali ifodalanadi).

O'zbek imo - ishora tilida gap tuzilishi og'zaki o'zbek tilidan farqlanadi. Gap tartibi ko'pincha Mavzu-kommentariy tartibida bo'ladi, ya'ni avval asosiy mavzu, keyin unga oid

ma'lumotlar beriladi. Masalan: "MEN – MAKTAB – BOR" ya'ni "Men maktabga boryapman" degani. Shu kabi holatlarda qo'shimchalarni daktil orqali ko'rsatib o'tish lozim.

Fe'l zamonlari, inkor va savol shakllari yuz ifodasi, qosh harakati va tananing pozitsiyasi orqali bildiriladi. So'z yasash esa asosan yangi ishoralar yaratish yoki mavjudlarini birlashtirish orqali amalga oshadi. Morfologik birliklar aniq harakatlar bilan ifodalanadi va ko'pincha kontekst orqali aniqlashtiriladi.

Grammatik jihatdan o'zbek imo - ishora tili Sodda va Qo'shma so'zlarga bo'linadi.

Sodda so'zlar: Bitta asosiy ma'no ifodalaydi.



Non

Qo'shma so'zlar: Ikki yoki undan ortiq mustaqil ishoralarning qo'shilishi orqali hosil bo'ladi.



+

=qush nomi

Qizil + ishton = qizilishton



+

= shaxs ismi

Oy + gul = Oygul



+

= jonzot nomi

Suv + ilon = suvilon

O'zbek imo - ishora tilining har bir ishorasida konfiguratsiya, joylashuv o'rni va harakatning yo'nalishi mavjud. Ulardan biri o'zgarsa ma'nosi ham o'zgaradi.



Masalan: 1 raqamli konfiguratsiya, joylashuvi yuzning o'ng tomonida, harakat yo'nalishi barmoq yuzga parallel holda chapdan o'ngga 2 marta takroran harakatlantirish orqali "Yashil" so'zini ifodalaydi.

Xuddi shu konfiguratsiya va joylashuvni o'zgartirmay faqat harakat yo'nalishini o'zgartirsak ma'no tubdan o'zgaradi.



Masalan: 1 raqamli konfiguratsiya, joylashuv yuzning o'ng tomonida, harakat yo'nalishi yuqoridan pastga yo'nalgan holda "Mazali" degan ma'noni anglatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimi rivojlanayotgani, eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar huquqlarining qonuniy himoyasi kuchayayotgani imo-ishora tilining maqomini ko'tarishga xizmat qilmoqda. Unga bo'lgan ilmiy va amaliy qiziqish oshgani sari, eshitish imkoniyati cheklangan insonlar hayot sifati ham yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova, M. (2020). Imo-ishora tillarining lingvistik xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Rasulov, A. (2018). O'zbek tilshunosligida nogironlar uchun kommunikatsiya vositalari. "Til va adabiyot" jurnali, 2(45), 33–38.
3. Karimova, D. (2019). Imo-ishora tilining semantik tuzilishi. Samarqand davlat universiteti ilmiy to'plami, 1(10), 25–30.
4. Qodirova, Z. (2021). Nogironlar uchun inkluziv ta'limda imo-ishora tilining roli. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Sutton-Spence, R., & Woll, B. (1999). The Linguistics of British Sign Language: An Introduction. Cambridge University Press. (Nazariy asos sifatida)
6. UNESCO (2017). Sign Languages and the Human Rights of Deaf People. [PDF hisobot]
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2022). Eshitish nogironligi bo'lgan shaxslar uchun kommunikatsiya vositalaridan foydalanish bo'yicha qo'llanma.